

KANADA ARG'UVONI (*CERCIS CANADENSIS*) KO'CHATLARINI YETISHTIRISH
TEKNOLOGIYASI

Alimov Fazliddin

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
"Dehqonchilik va o'rmon melioratsiyasi" kafedrasida assistenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kanada arg'uvoni (*cercis canadensis*) ko'chatlarini yetishtirish agrotexnologiyasi to'g'risida qimmatli ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kanada arg'uvoni (*cercis canadensis*), ko'chat, o'rmon, aholi yashash joylari, ko'kalamzorlashtirish, daraxt, buta, tuproq, tuproqqa ishlov berish.

Аннотация: Статья содержит ценную научную информацию об агротехнике выращивания сеянцев сирени канадской (*cercis canadensis*).

Ключевые слова: вишня канадская (*cercis canadensis*), саженец, лес, местообитание, озеленение, дерево, кустарник, почва, обработка почвы.

Annotation:-article contains valuable scientific information about the agrotechnology of growing Canadian lilac (*cercis canadensis*) seedlings.

Key words: Canadian cherry (*cercis canadensis*), seedling, forest, habitat, greening, tree, shrub, soil, tillage.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan o'rmon maydonlarimizni kengaytirish, aholi yashash joylari, bino va inshootlar atrofi, turli darajadagi yo'l atroflarini ko'kalamzorlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Hukumat qarorlarini bajarishda o'rmon xo'jaligi korxonalarining o'ziga xos o'rni bo'lib, ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib boruvchi buyurtmachilarga landshaft dizaynida foydalaniladigan turli manzarali ko'chatlarni yetkazib beruvchi hisoblanadi. O'rmon xo'jaliklarida iqlimning turli noqulay sharoitlariga chidamli, manzarali xususiyatlari yuqori bo'lgan daraxt va buta turlarining bir necha yuzlab turlari o'stiriladi.

Bularga, qrim qarag'ayi, virgin archasi, sharq biotasi, soxta kashtan, yapon saforasi, zarang va shumtol turlari, go'zal katalpa, pavlovniya, oq akasiya, Kanada arg'uvoni, hind sireni, suriya atirgulini ko'rsatishimiz mumkin. O'zining chiroyli gullashi, manzarali barglari, iqlimning salbiy omillariga chidamliligi tuproqqa talabchan emasligi hamda bino va yirik daraxtlar soyasida o'sa olishi bilan kam sonli daraxtlar qatorida Kanada arg'uvoni alohida ahamiyat va e'tiborga ega. O'zining erta gullashi, chiroyli pushti-binafsha rangli gullarining daraxtning butun tanasini qoplab olishi, to'q yashil yaltiroq barglarining ko'rinishi, qish davomida esa och jigarrang dukkaklari ushbu turga o'zgacha ko'rk bag'ishlaydi. Shu sababli, aholi o'rtasida ham Kanada arg'uvoniga bo'lgan qiziqish yuqori hisoblanadi.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan o'rmonlar va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirishda, ushbu tur ko'chatlarini yetkazib berish muhim ahamiyatga ega. Kanada arg'uvoni ko'chatlarini o'stirish uchun ko'chatzor maydoni tuproq iqlim sharoitiga e'tibor beriladi. Ko'chatzorlar uchun joy tanlashda asosan tuproq, gidrologik, yer tuzilishi sharoitlari hamda o'stirib yetishtiriladigan daraxt va butalarning biologik xususiyatlari e'tiborga

olinadi. Bundan tashqari sug'orish manbalari, mashina va mexanizmlaridan foydalanish yo'llari, sanitariya-gigiyena talablari, atrofda o'rab turgan o'simlik dunyosi hisobga olinadi. Ko'chatzorni qishloq, shahar va aholi yashaydigan maskanlar yaqinida tashkil etish tavsiya etiladi. Yer tuzilishi asosan tekis, tuproq unumdorligi anchagina yuqori, mexanik tarkibi yengil, yer osti suvlari kamida 1-1,5 m chuqurlikda joylashgan bo'lishi kerak. Sug'oriladigan zonalarda ko'chatlarni tuzi kam bo'lgan och kulrang tuproqlarda va yuqori qatlamida chirindisi 2 foizdan kam bo'lmagan joylarda tashkil qilish kerak. Sug'orish ariqlarining uzunligi ko'chat ekilgan va urug' sepilgan tuproq va yer sharoitiga qarab 50-100 m dan 200 gacha bo'ladi. Agarda ko'chatzor barpo etish uchun mo'ljallab, ajratilgan joylarda tuproqning sho'rliigi tarkibida SO_2 ioni 0,02%, NSO_3 - 0,12% Cl - 0,03%, PH - 0,05% dan, yer osti suvlarining mineralizatsiyasi 3 g dan oshib ketgan bo'lsa, unday yerlarda niholxona tashkil qilish butunlay man etiladi. Ajratilgan joylarda 5% kasallik va hashoratlar mavjud bo'lsa, bu sharoitda o'simliklarni muhofaza qilishning turli tadbirlari amalga oshiriladi. Ko'chatzorlarda tuproqqa ishlov berish daraxt va buta nihollarini o'stirishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Ma'lumki tuproqlar har xil unumdorlikka ega, u esa o'z navbatida tuproqning kelib chiqishi, iqlimning, o'simliklarning, mikroorganizmlarning va dehqonchilik madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Parvarishlanadigan ko'chatlarning hayotiy sharoiti agrotexnik tadbirlar bilan tartibga solinadi.

Tuproqqa ishlov berishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

1. Tuproqning haydov qatlamini va strukturasi tuzilishini o'zgarishi natijasida qulay namlik, havo, issiqlik, oziqlanish rejimini ta'minlash;
2. Tuproqning pastki qatlamlaridan oziq moddalar tortib olish hisobiga ularning aylanishini kuchaytirish va mikrobiologik jarayonlarga kerakli yo'nalishda ta'sir qildirish;
3. Kasalliklarga va zararkunandalarga duchor bo'lgan begona o'tlarni yo'qotish;
4. Tuproqni suv va shamol eroziyasidan saqlash;
5. Urug'larini ekish uchun qulay sharoitlar yaratish;
6. Tuproqdagi o'simlik qoldiqlarini va o'g'itlarni aralashtirish.

Ko'chatzor tashkil etishda birinchi navbatda, ajratilgan yer maydonini tekislash zarur. Chunki notekis joylarda nihollarni sug'orish muammo tug'diradi, ba'zi paytlarda tekis sug'orilmaslik natijasida urug'larning unib chiqishi past bo'ladi, nihollarning o'sishi yomonlashadi. Tuproqqa ishlov berish deganda yerni haydash, boronalash, molalash va kultivatsiya qilish tushiniladi.

Tuproqqa asosiy ishlov berish turi, yerni ag'darib haydash hisoblanadi. Agar kuz davrida yog'ingarchilik kam bo'lib, tuproq juda quruq bo'lsa, u holda yerni haydashdan oldin albatta sug'orish lozim. Erta bahorda esa, to'plangan namlikni saqlash maqsadida, tuproqning yuqorigi qatlamini boronalanadi va bu o'z yo'lida yig'ilgan tuzlarni tuproqni yuqori qatlamiga ko'tarishini kamaytiradi. Agar tuproq juda ham jipslashgan bo'lsa, 18 sm chuqurlikgacha yumshatkichlar yordamida yumshatib boronalash yoki molalash kerak. Kanada arg'uvoni ko'chatzorida asosan kuzda va urug' sepishdan oldin yerlar tayyorlanadi. Asosiy tuproqni tayyorlash uchun yerlarni kuzda, erta ko'klamda shudgorlanadi. Yerni plug va plugoldi moslamasi bilan 27-30 sm chuqurlikda haydaladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida aytilganidek yer haydalganda kuzgi-qishki yog'ingarchilikdan yerda ko'proq nam yig'iladi, kasalliklar va zararkunandalar nobud bo'lib,

har xil zararli o'tlarning ildizlari quriydi. Yerni erta ko'klamda tayyorlashning kuzga shudgorlashdan farqi ularni birdaniga boronalashdan iboratdir. Bizning sharoitda Kanada arg'uvoni urug'larini sepishdan oldin maydon holatidan kelib chiqib, kuzgi shudgor usulida tuproqqa ishlov beriladi. Bunday manzarali daraxt turlarini ko'paytiish atmosferamizni tozlanishiga biotamizni xilma xil bo'lishiga xizmat qiladi. Yashil makon dasturini amalga oshirishda aynan shu kabi daraxt turlaridan ko'p foydalanib amaliyotga joriy qilish yaxshi natija beradi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 maydagi «O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» gi PQ-2966 sonli qarori.
2. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 maydagi «O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» gi PF-5041 sonli farmoni.
3. Xonazarov A.A. O'rmonchilar uchun qo'llanma. T. 1999.
4. Mulkidjanyan Ya.I., Teodorovskiy B.C. - Osnovniye ponyatiya i terminy po zelenomu stroitelstvu. M., 1984.
5. Nabiyev M., Kazakbayev R. Redkiye derevya i kustarniki Tashkenta i ix oxrana. T. 1973
6. Novoselseva A.I., Rodin A.R. Spravochnik po lesnym kulturam. M., Lesnaya promyshlennost. 1984, 308 s.